



**MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY
SAMARADORLIGI**

**Boboxonov Umidjon Baxtiyor o'g'li
Shodiyev Sayidaxmad Abdumalikovich**

DTPI, Turizm ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehmonxona biznesida innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda mehmonxona xo'jaligida qo'llaniladigan asosiy raqamli texnologiyalar – avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, bulutli platformalar, dinamik narxlash algoritmlari, sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar, narsalar interneti (IoT) texnologiyalari hamda robotlashtirilgan jarayonlar yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni joriy etish natijasida operatsion xarajatlarning qisqarishi, energiya resurslari tejallishi, mehnat unumdorligining oshishi va mehmonxona daromadliligining yaxshilanishi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar miqdoriy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada raqamli texnologiyalarning investitsion jozibadorligi, o'zini qoplash muddatlari va uzoq muddatli iqtisodiy foydalari ham baholangan. Bundan tashqari, sohada raqamli transformatsiyani joriy etishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: mehmonxona biznesi, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik, investitsiyalar.

Kirish

O'zbekistonda mehmonxona biznesini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, har qanday mamlakatda mehmonxona xo'jaligining rivojlanishi, eng avvalo, sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, raqamli infratuzilmani shakllantirish, shuningdek, investitsion muhitning qulayligiga bog'liq. Bu esa sohada raqamli transformatsiyani amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, mehmonxona biznesining rivojlanishi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining o'sishi bilan bevosita bog'liqdir. Ayni damda mehmonxona industriyasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadi — xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni oshirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda mehmonxona biznesida raqamli texnologiyalar xizmat



ko'rsatish jarayonlarining tezligi, sifati va qulayligini oshirish bilan birga, iqtisodiy samaradorlikning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Raqamli yechimlarni joriy etgan mehmonxona korxonalari an'anaviy usulda faoliyat yurituvchi raqobatchilarga nisbatan sezilarli darajada yuqori moliyaviy natijalarga erishmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyani amalga oshirgan mehmonxonalarda operatsion xarajatlar o'rtacha 18-25% ga qisqaradi, mehnat unumdorligi esa 30-40% ga oshadi. 2025-yil 9-aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan mamlakatimiz turizmini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida mehmonxona xizmatlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, sohaning investitsion jozibadorligini oshirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Davlatimiz rahbari ma'ruzasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mehmonxonalarni zamonaviy axborot tizimlari bilan ta'minlash va bu boradagi investitsiyalarni rag'batlantirish masalalari alohida ta'kidlandi⁷².

Mehmonxona biznesida iqtisodiy samaradorlik — bu raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida erishiladigan moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishidir. Iqtisodiy samaradorlik nafaqat xarajatlarning qisqarishi, balki daromadlarning oshishi, resurslardan foydalanish intensivligining ortishi va investitsiyalarning qaytish muddati bilan ham o'lchanadi.

Mavzuga Oid Adabiyotlar Sharhi

Mehmonxona biznesida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi masalalari XX asrning so'nggi yillaridan boshlab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar ob'ektiga aylangan.

Xorijlik olimlar Stowe S. va Hwang J. tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra, mehmonxonalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish operatsion xarajatlarni o'rtacha 22% ga kamaytiradi. Shuningdek, ularning fikricha, raqamli texnologiyalarga qilingan investitsiyalar o'rtacha 1,5-3 yil ichida o'zini to'liq qoplaydi va keyingi yillarda sof foyda keltira boshlaydi⁷³.

Turkiyalik mutaxassis O. Devrim Turkmen mehmonxona biznesida dinamik narxlash algoritmlarining iqtisodiy samaradorligini o'rgangan. Uning

⁷² Shavkat Mirziyoyev. 2025-yil 9-aprel kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.

⁷³ . Stowe S., Hwang J. Economic Impact of Digital Transformation in the Hospitality Industry // Journal of Hospitality and Tourism Technology. – 2022. – Vol. 13, № 4. – Pp. 567–582



hisob-kitoblariga ko'ra, real vaqt rejimida ishlaydigan narxlash tizimlari bir xonaga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadni (RevPAR) 15-25% ga oshirish imkonini beradi. Bu esa mehmonxona yillik daromadining sezilarli o'sishiga olib keladi⁷⁴.

Mahalliy olimlar D. Aslanova va B. Safarov mehmonxona biznesida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy jihatlarini tahlil qilib, investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari davlat budjeti, xorijiy investitsiyalar va xususiy sektor mablag'lari ekanligini ta'kidlaydilar. Ulaming fikricha, raqamli texnologiyalarni joriy etishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi⁷⁵.

Iqtisodchi olim A. Norchayev mehmonxona xizmatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorligini baholashda nafaqat to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki bilvosita iqtisodiy ta'sirlarni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Jumladan, mijozlarning qoniqish darajasining oshishi, brend obro'sining mustahkamlanishi va bozor ulushining kengayishi kabi omillar uzoq muddatli iqtisodiy foydani belgilaydi⁷⁶.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarda mehmonxona biznesida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi asosan operatsion xarajatlarning qisqarishi va daromadlarning oshishi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etishning investitsion jozibadorligi, o'zini qoplash muddatlari va turli mehmonxona turlari bo'yicha differensial samaradorlik masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tahlil Va Natijalar

Mehmonxona biznesida innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi bir qator ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

⁷⁴ . O. Devrim Turkmen. Dynamic Pricing and Revenue Management in Hotels // International Journal of Contemporary Hospitality Management. – 2021. – Vol. 33, № 6. – Pp. 2105–2124.

⁷⁵ D. Aslanova, B. Safarov, A. Xayrullayev. Роль инноваций и их значение в инвестициях на рынке туристских услуг в Узбекистане // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2016. – № 3. – С. 18–22.

⁷⁶ A. Norchayev. Turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2020. – № 2 (mart-aprel).



Tadqiqot davomida mehmonxona xo'jaligida eng ko'p qo'llaniladigan oltita raqamli texnologiya tanlab olindi va ularning iqtisodiy samaradorligi miqdoriy jihatdan baholandi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (PMS). An'anaviy qo'lda boshqaruv tizimlaridan raqamli platformalarga o'tish mehnat xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, avtomatlashtirilgan PMS ni joriy etgan mehmonxonalarda ma'muriy xodimlar sonini 30-40% ga qisqartirish imkoniyati yaratiladi. Buning natijasida yillik ish haqi fondidan tejalgan mablag' o'rtacha 50-70 ming AQSh dollarini tashkil etadi (o'rtacha 100 xonali mehmonxona misolida). Ushbu tizimni joriy etish uchun dastlabki investitsiyalar o'rtacha 20-30 ming dollarni tashkil etadi va o'zini qoplash muddati 6-8 oyni tashkil qiladi.

Bulutli platformalar (Cloud-based solutions). Mahalliy serverlarni saqlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari bulutli yechimlarga nisbatan ancha yuqori. Hisob-kitoblarga ko'ra, bulutli platformalarga o'tish IT-infratuzilma xarajatlarini 40-50% ga kamaytiradi. 100 xonali mehmonxona uchun yillik tejash o'rtacha 15-25 ming dollarni tashkil etadi. Bundan tashqari, bulutli tizimlar dasturiy ta'minotni yangilash xarajatlarini ham qisqartiradi.

Dinamik narxlash algoritmlari. Ushbu texnologiya real vaqt rejimida talab va taklifga qarab xona narxlarini optimallashtiradi. 50 dan ortiq mehmonxonalarda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, dinamik narxlash algoritmlarini joriy etish bir xonaga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadni (RevPAR) 18-22% ga oshiradi. 100 xonali mehmonxona uchun bu ko'rsatkich yiliga o'rtacha 80-120 ming dollar qo'shimcha daromad keltiradi. Algoritmlarni joriy etish uchun boshlang'ich investitsiyalar 10-15 ming dollarni tashkil etadi va o'zini qoplash muddati 2-4 oyni tashkil qiladi.

Sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar (AI chatbots, virtual concierge).

Sun'iy intellekt asosidagi chat-botlar va virtual konsyerj xizmatlari resepsion xodimlarga tushadigan yukni kamaytiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu texnologiyalarni joriy etish natijasida qo'ng'iroqlar va so'rovlar sonining 60-70% i avtomatik tarzda qayta ishlanadi. Bu esa 2-3 ta to'liq shtat birligini qisqartirish imkonini beradi, yillik tejash esa 30-40 ming dollarni tashkil etadi. AI tizimlarini joriy etish uchun boshlang'ich investitsiyalar 15-25 ming dollar bo'lib, o'zini qoplash muddati 8-12 oyni tashkil qiladi.

Narsalar interneti (IoT) asosidagi energiya boshqaruvi tizimlari.

Aqlli sensorlar va avtomatlashtirilgan energiya boshqaruvi tizimlari elektr energiyasi, isitish va sovutish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, IoT tizimlarini joriy etish energiya sarfini 25-35% ga kamaytiradi. 100 xonali mehmonxona uchun yillik tejash o'rtacha 20-30



ming dollarni tashkil etadi (mintaqaning iqlim sharoitiga qarab). IoT tizimlarini o'rnatish uchun boshlang'ich investitsiyalar 25-40 ming dollar bo'lib, o'zini qoplash muddati 12-18 oyni tashkil qiladi.

Robotlashtirilgan jarayonlar (RPA – Robotic Process Automation).

Mehmonxonalarda takrorlanuvchi jarayonlarni (masalan, hisob-fakturalarni rasmiylashtirish, inventarizatsiyani yuritish, to'lovlarni qayta ishlash) robotlashtirish mehnat unumdorligini oshiradi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, RPA texnologiyalarini joriy etish buxgalteriya va ma'muriy xarajatlarni 50-60% ga kamaytiradi. 100 xonali mehmonxona uchun yillik tejash o'rtacha 40-60 ming dollarni tashkil etadi. RPA tizimlarini joriy etish uchun boshlang'ich investitsiyalar 30-50 ming dollar bo'lib, o'zini qoplash muddati 10-14 oyni tashkil qiladi. Turizm sohasidagi prognozlar ham ushbu texnologiya'ning istiqboli nihoyatda yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Bozor hajmining kelgusi yillarda bir necha baravar oshishi sun'iy intellektning sayohatni rejalashtirish, mijozlar bilan muloqot qilish, talabni prognozlash va marketing faoliyatini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda keng qo'llanilayotganini anglatadi. Shuningdek, bu jarayon turizm tashkilotlari va mehmonxonalarni an'anaviy boshqaruv usullaridan voz kechib, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish tizimiga o'tishga undamoqda

Quyidagi jadvalda mehmonxona biznesida qo'llaniladigan raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari jamlangan (1-jadval).

1-jadval. Mehmonxona biznesida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi (100 xonali mehmonxona misolida)

R/ r	Raqamli texnologiya turlari	Boshlang'i ch investitsiya (ming dollar)	Yillik tejash /daromad oshishi (ming dollar)	Qopla sh muddati (oy)
1	Avtomatlashtiril gan PMS	20-30	50-70	6-8
2	Bulutli platformalar	5-10	15-25	4-6
3	Dinamik narxlash algoritmlari	10-15	80-120 (daromad oshishi)	2-4
4	Sun'iy intellekt	15-25	30-40	8-12



	xizmatlari			
5	IoT energiya boshqaruvi	25-40	20-30	12-18
6	RPA (robotlashtirish)	30-50	40-60	10-14

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eng tez qoplanadigan texnologiyalar dinamik narxlash algoritmlari (2-4 oy) va bulutli platformalar (4-6 oy) hisoblanadi. Uzoq muddatli istiqbolda esa eng yuqori iqtisodiy samarani avtomatlashtirilgan PMS va dinamik narxlash algoritmlari birlikda ta'minlaydi.

Xulosa Va Takliflar

So'nggi yillarda mehmonxona biznesida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni kompleks joriy etgan mehmonxonalarda operatsion xarajatlar o'rtacha 25-30% ga qisqaradi, mehnat unumdorligi 35-40% ga oshadi va bir xonaga to'g'ri keladigan daromad (RevPAR) 18-22% ga yaxshilanadi.

Biroq, raqamli texnologiyalarni joriy etishda ba'zi muammolar ham mavjud. Jumladan, boshlang'ich investitsiyalarning yuqoriligi, malakali IT mutaxassislarning yetishmasligi va xodimlarning raqamli savodxonligining pastligi ushbu jarayonni sekinlashtirmoqda. Shu sababli, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi:

- mehmonxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar ajratish orqali davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish;

- mehmonxona xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha o'quv markazlari va trening dasturlarini tashkil etish;

- xorijiy tajriba asosida mehmonxonalar uchun moslashtirilgan "raqamli transformatsiya" dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish;

- kichik va o'rta mehmonxonalar uchun byudjetli raqamli yechimlarni (bulutli PMS, mobil ilovalar) ishlab chiqish va ularni joriy etishda texnik yordam ko'rsatish.

Shunday qilib, mehmonxona biznesida innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi amaliyotda isbotlangan va bu yo'nalishdagi investitsiyalar o'zini qisqa muddatlarda qoplaydi. Taklif etilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mehmonxona xo'jaligining



raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat turizm sanoatining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. 2025-yil 9-aprel kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 16-aprel, O'RQ-549).
3. O'zbekiston Respublikasining "Investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (2019-yil 25-dekabr, O'RQ-598).
4. A. Norchayev. Turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – 2020. – № 2 (mart–aprel).
5. K. Chinar. Role of Mobile Technology for Tourism Development // The Emerald Handbook of ICT in Tourism and Hospitality. – ISBN 978-1-83982-689-4.
7. Ulrike Gretzel, Marianna Sigala, Zheng Xiang, Chulmo Koo. Smart Tourism: Foundations and Developments // Electronic Markets. – 2015. – Vol. 25, № 3. – Pp. 179–188.
8. Stowe S., Hwang J. Economic Impact of Digital Transformation in the Hospitality Industry // Journal of Hospitality and Tourism Technology. – 2022. – Vol. 13, № 4. – Pp. 567–582.
9. O. Devrim Turkmen. Dynamic Pricing and Revenue Management in Hotels // International Journal of Contemporary Hospitality Management. – 2021. – Vol. 33, № 6. – Pp. 2105–2124.
10. D. Aslanova, B. Safarov, A. Xayrullayev. Роль инноваций и их значение в инвестициях на рынке туристских услуг в Узбекистане // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2016. – № 3. – С. 18–22.